


VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhimi jtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning turliligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2025- yil yanvar-mart)



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish


(2025- yilning yanvar-mart holatiga)

	mlrd so'm	O'sish surati,%	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	13 900,4	100,0	111,0
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	586,9	4,2	115,2
moliyaviy xizmatlar	1 946,5	14,0	119,5
transport xizmatlari	2 202,8	15,9	113,5
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 063,7	14,8	106,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 037,2	29,0	107,5
savdo xizmatlari	2 541,3	18,3	110,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	223,9	1,6	115,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	421,5	3,0	108,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	275,6	2,0	103,9
ijara xizmatlari	211,4	1,5	105,7
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	335,3	2,4	108,0
shaxsiy xizmatlar	522,4	3,8	106,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	92,2	0,7	117,7
boshqa xizmatlar	503,4	3,6	106,2

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (29,0 %), savdo xizmatlari (18,3 %), transport xizmatlari (15,9 %) tashkil etgan.


Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 %), ijara xizmatlari (1,5 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (1,6 %) tashkil etgan.

2025- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar tarkibi (jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush yashash va ovqatlanish xizmatlari (jami xizmatlarning 29,0 %), savdo xizmatlar (18,3 %), transport xizmatlari (15,9 %), moliyaviy xizmatlar (14,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd so'm




Joriy yilning yanvar - mart oylarida eng yuqori hajm yashash va ovqatlanish xizmatlari 4 037,2 mlrd so'm, savdo xizmatlari 2 541,3 mlrd so'm, transport xizmatlari 2 202,8 mlrd so'm, moliyaviy xizmatlar 1 946,5 mlrd so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

2025- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2025-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 4 037,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 90,8 mlrd so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 3 946,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

2025- yil yanvar-mart oylarida transport bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2025-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 2 202,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 2 063,7 mlrd so'mni, jami transport xizmatlarining 93,7 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish


(2025- yilning yanvar-mart oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m	2024- yil yanvar- mart holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2024-yil yanvar- mart holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	13 900,4	111,0	100,0	3 346,7	108,0
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	2 829,9	114,2	20,4	8 596,4	111,9
Qo‘qon	1 555,7	112,4	11,2	4 949,8	110,4
Quvasoy	191,2	112,2	1,4	1 849,6	110,0
Marg‘ilon	759,0	113,6	5,5	2 938,3	111,7
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	382,6	113,1	2,8	1 638,5	110,9
Qo‘shtepa	202,7	111,9	1,5	948,3	109,3
Bag‘dod	184,3	112,3	1,3	772,2	109,8
Buvayda	386,5	116,3	2,8	1 525,2	113,7
Beshariq	220,5	112,5	1,6	890,7	110,5
Quva	234,3	113,2	1,7	833,3	111,2
Uchko‘prik	352,0	112,0	2,5	1 422,2	109,5
Rishton	256,9	111,6	1,8	1 158,8	109,4
So‘x	107,5	111,1	0,8	1 245,1	108,2
Toshloq	260,7	111,8	1,9	1 172,3	109,6
O‘zbekiston	204,0	112,3	1,5	844,1	110,0
Farg‘ona	270,0	111,8	1,9	1 192,0	109,6
Dang‘ara	204,3	112,0	1,5	1 125,6	109,6
Furqat	138,9	111,6	1,0	1 068,4	109,4
Yozyovon	157,2	110,9	1,1	1 284,4	108,7
Taqsimlanmagan hajm	5 002,1	109,3	36,0	x	x

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Buvayda tumaniga (116,3 %) va Farg‘ona shahriga (114,2 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari taqsimlanmagan hajm (36,0 %), Farg‘ona shahri (20,4 %), Qo‘qon shahri (11,2 %), Marg‘ilon shahri (5,5 %) va Oltiariq (2,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (0,8 %), Furqat (1,0 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.


2025- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo'lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2025-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 346,7 ming so'mga teng bo'ldi. Uning o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 108,0 %ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (8 596,4 ming so'm), Qo'qon (4 949,8 ming so'm) va Marg'ilon (2 938,3 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (1 849,6 ming so'm), Oltiariq (1 638,5 ming so'm) va Buvayda (1 525,2 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Bag'dod tumanida (772,2 ming so'm) kuzatildi, o'sish sur'ati 109,8 %ni tashkil etdi.